

OGAHIYNING TARIXNAVISLIK MAHORATI: "ZUBDAT UT-TAVORIX" ASARI ASOSIDA

Hilola Rahmatova

Farg'ona davlat universiteti Filologiya va tillarni
o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakillaridan biri bo'lgan Muhammadrizo Ogahiyning tarixiy asarlari shu jumladan, „Zubdat ut-tavorix“ asari tahlil qilinadi. Maqolada Ogahiyning tarixga bo'lgan munosabatlari, uni o'rganishdagi qarashlari ushbu asari orqali ochib beriladi. Ogahiy asarlarining bugungi kundagi o'rganilishi, ahamiyati hamda uning asarlari o'tmishni o'rganishdagi muhim manba ekanligi bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: Muhammadrizo Ogahiy, tarix, „Zubdat ut-tavorix“ (Tarixlar qaymog'i) asari, Xiva xonligi, Rahmonqulixon, „Riyoziy ud-davla“, sa'jli nasr.

Annotation: This article analyzes the historical works of Muhammadrizo Ogahiy, one of the great representatives of Uzbek classical literature, including the work "Zubdat ut-tavorikh". The article reveals Ogahiy's attitude to history and his views on studying it through this work. The study of Ogahiy's works today, their significance, and the fact that his works are an important source for studying the past are described.

Keywords: Muhammadrizo Ogahiy, history, "Zubdat ut-tavorikh" (The Cream of Histories), Khiva Khanate, Rahmonqulikhan, "Riyoziy ud-dawla", prose with verses.

XIX asr Xorazm adabiy muhitining yirik siymolaridan biri Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li – Ogahiy Navoiydan keyin eng “ko'p va xo'b” she'r va asarlar yozgan ijodkorlardandir. Ogahiy 1809-yil 17-dekabrda Xiva atrofidagi Qiyot qishlog'ida (Hozirgi Ogahiy nomli jamoa xo'jaligi) dunyoga kelgan. Otasi Erniyozbek vafot etgach, yosh qolgan Ogahiy amakisi Munis o'z tarbiyasiga oldi. Munis atrofiga to'plangan ijodkorlar bo'lg'usi shoir Ogahiy ijodiga katta ta'sir qildi. Ogahiy dastlabki bilimni Munis Xorazmiydan oldi, keyinchalik Xiva madrasalarida tahsil

ko'rdi. Oldin maktabda keyin Xiva madrasasida tahsil ko'rgan va arab, fors, turk tillarini puxta egallagan. Ogahiydan boy ijodiy meros qoldi. U madrasada o'qib yurgan paytlaridayoq "Bayozi mutafarriqai forsiy" nomli bayoz tuzdi. Bu bayozga Jomiy, Navoiy, Hofiz, Sheroziy, Bedil, Fuzuliy g'azallarini kiritish bilan bir qatorda ularga ergashib yozgan o'zining o'n besh g'azali va ikki mu- xammasini qo'shdi. Ogahiy ijodining mavzu doirasi keng edi. Ammo u qaysi mavzuga murojaat qilmasin, ishqni chetlab o'tolmaydi. Ishq uning qalamida mavzuni yoritishda, g'oyani ilgari surishda asosiy badiiy vositadir. She'riyatida ishq – iymon, e'tiqod, vatan, zakovat timsoli kabi lirik qahramonning o'y-kechinmalari, faoliyati, dunyoqarashini harakatlantiruvchi kuch bo'lgan. Ogahiy asarlarida zamon va zamondoshlari tasviri ham katta o'rin egallagan. Shoir o'zi yashab ijod etgan murakkab davrni mahorat bilan badiiy umumlashtirganda, zamon va uning ahliga munosabat bildirganda, baho berganda, insonparvarlik, xalqparvarlik nuqtai nazaridan yondashgan. Ogahiy janr imkoniyatlariga ijodiy yondashib, ularni takomillashtirgan va u 1872-yilda parokanda bo'lgan badiiy merosini jamlab "Ta'viz ul-oshiqin" ("Oshiqlar tumori") nomli devonni orqali qimmatli lirik meros qoldirdi. Shu jumladan, Ogahiyning tarix yuzasidagi qarashlari, ayniqsa, Xorazm tarixiga bag'ishlab yozgan bir qancha asarlari taq- singa sazovordir. Buning yaqqol misolini birgina XIX asr Xorazm tarixiga oid asosiy qo'lyozma manbaalardan biri 1845-1846 yili Ogahiy tarafidan yozilgan "Zubdat ut-tavorix" nomli asarida ko'rishimiz mumkin. Bu asar "Riyozi ud-davla" asaridan keying davrni ya'ni 1843-yildan 1846-yilgacha Xorazmda bo'lgan tarixiy voqealarni o'z ichiga oladi. Asarning avvali: " Siposi vofir tuhfası ul sulton azamat nishon ostonig`a nisordurkim" so'zi bilan boshlanib oxiri... "Donish ahlining xotiri xatirlariga ma'lum bo'lsinkim, bu muxtasarning ta'lifi hijriya 1262 (1845-1846)-yilda ilon rabial-avval oyining to'rtida dushanba kuni ixtimom topdi. Saxv xato va nuqsonni ayb qilmay ma'zur tutsinlar, balki lutf va karam ko'rgizib, islox bersinlar... Tammat ul-kitob. Sanasi (1879-1880). Roqimi in kitob Mulla Muhammad Rizo ibn Muhammad Karim devon marhumiy", so'zlari bilan tamom bo'ladi.

Ogahiy asarning avvalida “Riyoziy davlat” asarini tugatib, Rahimqulixonning oldiga borganligi va oʻzining bu “Zubdat ut-tavorix” nomli asar yozishni boshlaganligi haqida gapiradi. Hamda Ogahiy bu asarni ikki qismga boʻlib birinchi qismda Rahimqulixonning tugʻilishi, ilm oʻrganishi va harbiy mahoratni egallash yoʻlidagi saʼy-harakatlari, shuningdek, boʻlgʻusi xonning Hazorasp hokimi sifatida olib brogan faoliyati saʼjli nasrda (yaʼni nasri mujassa) da goʻzal badiiy shaklda mufassal bayon qilinadi. Asarning ikkinchi qismda esa Rahimqulixonning xonlik taxtiga chiqqandan soʻng to vafotigacha boʻlgan voqealar haqida yozadi. Ogahiyning bu asarini oʻqir ekanmiz, adib oʻzidan oldingi yillarda ijod qilib oʻtgan tarixchi – Abulgʻoziy Bahordirxonning „Shajarayi turk“ va „Shajarayi tarokima“ asarlariga qaysidur maʼnoda tayanganligini koʻrishimiz mumkin, lekin Ogahiy ularni tanqidiy tahlil qilib oʻz zamonasidagi yangi voqealar bayoni bilan toʻldiradi.

Asarda Rahimqulixonning mazlumlarga yordam koʻrsatgani haqida bir qancha tarixiy faktlar keltirilgan. Bu faktlar ham shunchaki qayd qilingan emas, yuksak fasohat bilan tasvirlangan. Masalan, hijriy 1257- (milodiy 1843) yili Rahimqulixon otasi Ollohqulixonning farmoyishi bilan Eron yurishiga oʻtlanadi. Ushbu safar asnosida Xurosonning Bodi anis muzofotiga qarashli Koʻshk va Qoratepa mavzellarida yashovchi jamshidiya degan toifa aholisi Rahimqulixonga Hirot hokimi Shoh Komrondan shikoyat qiladilar. Ular shohning zulmi haddan oshgani, jamshidiya toifasining mollarini talon-toroj etib, ayollari va bolalarini qul qilib sotayotganini bildirib, xondan madad tilaydilar. Rahimqulixon Eron safarini qoldirib, jamshidiya toifasiga madad berishga qaror qiladi hamda oʻn besh ming uylikdan ziyodaroq elatni Xurosondan Xorazm diyoriga koʻchirib keladi. Ogahiyning guvohlik berishicha, jamshidiya toifasi “kelturulgʻondin soʻng Qilich Niyozboy nahrining bir shuʼbasi kanorida Kuba togʻining janubiy ostida ul tavoyifgʻa maskan va mazoriʼ tayin qilindi. Holo ulugʻ el va obodon yurt boʻlub oʻlturubdurlar”.

Tarixga ibrat va tafakkur nazari bilan qaralsa, toj-taxt uchun kurashlar natijasida necha-necha obod manzillarning xarob boʻlgani-yu el-ulus ahvoli ogʻirlashgani, taraqqiyot oʻz oʻrnini tanazzulga boʻshatib berganligini kuzatish mumkin. Lekin

mo‘tabar manbalarda zikr etilishicha, Turkiston tarixida himmati shohlikdanda baland hukmdorlar ko‘p bo‘lgan. “Zubdatu-t-tavorix”dagi fakt va dalillar Rahimqulixonning ham xuddi shunday hukmdorlar sirasiga kirishidan dalolat beradi.

Ogahiyning fikriga ko‘ra hukmdor uch fazilat egasi bo‘lishi shart : oily nasab, ilm-u ma‘rifat va harbiy mahorat. Ogahiy ushbu fikrlarini she‘riy usulda bayon qilar ekan, hukmdor uchun ilm-u ma‘rifatga ega bo‘lish zaruriy amal ekanligini va harbiy mahoratda ham Rustami doston, shoh Bahrom singari qahramonlardek yengilmas bo‘lishi zarurligini ta’kidlaydi.

Asar yuqorida ta’kidlanganidek, sa’jli nasrda ijod etilgan. Unda Xiva hukmdori Rahimqulixon ezgu fazilatlar sohibi sifatida ulug‘lanadi. Uning ko‘plab ilmlarni egallagani, fuqarolarga shavqat va marhammat, karam va saxovat ko‘rsatishda tengsiz ekani bayon etiladi. Ogahiy Rahmonqulixonni tasvirlar ekan uni „Shahan- shohu forsunda xislat, humoyun e’tiqod-u pok niyat” hukmdor sifatida madh etadi. Buni „Hamisha komi mulk obod qilmak” – xonning hayotiy amali ekani bilan izohlab o’tadi. Asarda Rahmonqulixonning mazlumlarga ham bir qancha yordam berganligini faktlar bilan keltiradi.

Xulosa qilib aytganda, Ogahiyning „Zubdat ut-tavorix “ asari mukammal va qimmatli ma’lumotlarga ega tarixiy asarlardan biri sifatida adabiyotimizdan o‘rin egallagan desak, mubolag’a bo‘lmaydi. Asar o‘z davrining siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotini puxta hujjatlar, aniq faktlar hamda muallifning bevosita kuzatuvlariga tayangan holda yoritgani bilan ahamiyatlidir. Unda xonlik boshqaruvi, saroy hayoti, ichki va tashqi siyosiy munosabatlar, mahalliy amaldorlar faoliyati va xalqning turmush tarzi keng qamrab olingan. Muallifning voqealar ketma-ketligini aniq bayon qilishi, til va uslubdagi ixchamlik, tasvirlardagi haqqoniylik asarni tarixiy manba sifatidagi qiymatini yanada oshiradi. Asar nafaqat o‘z zamonasining siyosiy tarixini tiklashda, balki o‘sha davrning madaniy-ma’naviy muhitini o‘rganishda ham muhim ahamiyatga ega. Asar Ogahiy kabi bilimdon tarixnavisning ilmiy salohiyati, manbashunoslik mahorati va badiiy tasvir imkoniyatlarini birlashtirgan holda

yaratilgan bo'lib, o'zbek tarixshunosligidagi ishonchli, qimmatli yozma manbalardan biri sifatida bugungi kunda ham tadqiqotchilar uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, bu asarni, nafaqat, Xiva xonlari haqida balki, ularning o'sha davr ilm-ma'rifat ahliga bo'lgan munosabatini ham o'rganishimiz mumkin hisoblangan zarur manba deya olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ogahiy, Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li. Zubdat ut-tavorix. Toshkent: Fan nashriyoti, 1994.
2. Berdimurodov, K. Xorazmlik tarixnavislar ijodi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2010.
3. Jo'raxonov, A. "Ogahiy – tarixchi olim sifatida." // O'zbek tili va adabiyoti, 2018, №4, 75–82-betlar.
4. Karimov, Sh. Xiva xonligi tarix manbalari va ularning tahlili. Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2016.
5. Rajabov, A. O'zbek mumtoz tarixshunosligi: manbalar va izohlar. Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021.